

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:  
MD- 70230101- 1.09.  
" " 2024-yil



XORIJY SOTSIOLINGVISTIKA

FANINING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar  
Ta'lim yo'nalishi: 70230101-Lingvistika (o'zbek tili)

<b>Fan/modul kodi</b> XSL 3 04	<b>O'quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr</b> <b>III</b>	<b>ECTS - Kreditlar</b> <b>4</b>	
<b>Fan/modul turi</b> <b>Majburiy</b>	<b>Ta'lim tili</b> <b>O'zbek</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>4</b>	
<b>I.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya</b> <b>mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil</b> <b>ta'lim</b> <b>(soat)</b>	<b>Jami yuklama</b> <b>(soat)</b>
	<b>XORIJIY</b> <b>SOTSIOLINGVISTIKA</b>	60	60	120

- 1.** **Modulning maqsadi:** magistrant-talabalarni AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya mamlakatlardagi tillar vaziyatini ob'ektiv tasvirlash va tavsiflash, tahlil qilish salohiyatini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.
- Modul vazifalari.** "Xorijiy sotsiolingvistika" fani magistrantlarni nafaqat AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlardagi tillar vaziyatini ob'ektiv tasvirlash va tavsiflash, balki qayd etilgan mamlakatlar davlat tillari, ularning maqomlari, ijtimoiy vazifasi, standart (davlat) va nostandard(nodavlat) tillar ijtimoiy xizmat doiralari, bilingvism, diglossiya hodisalari, tillararo munosabatlar, o'zaro ta'sir, til jamoalarida tillarning qo'llanish holati, sotsium (jamoa a'zolari)ning davlat tillariga munosabati, ularni amalda ishlatish darajasi va h.k. haqida bilim berish vazifasini bajaradi.
- Shuningdek, tilshunoslikda sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyatini yoritib berish, magistrlarni "Xorijiy sotsiolingvistika" fanining "predmeti, vazifalari, metodlari va tushunchaviy-terminologik apparatidan xabardor qilish fanning vazifasini tashkil qiladi.
- 2.**
- ASOSIY QISM**
- I. Modulning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**
- 1-MAVZU: Xorijiy sotsiolingvistika fanining maqsad va vazifalari**
- "Xorijiy sotsiolingvistika"da rivojlangan o'nta davlatdagi til siyosati, tillar vaziyatining tasvirlanib, tavsiflanishi. Ushbu kursning magistratura mutaxassisligi "O'quv rejasi"dan o'rinn olgan "Nazariy tilshunoslik masalalari", "Lingvokulturologiya", "Psixolingvistika", "Matn tilshunosligi", "Pragmalingvistika" kabi fanlar bilan chambarchas aloqadorligi bilan tavsiflanishi.
- "Xorijiy sotsiolingvistika" magistrantlarni nafaqat AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Rossiya, Koreya, Xitoy, Yaponiya mamlakalaridagi tillar vaziyatini obyektiv tasvirlash va

tavsiflash, shuningdek, qayd etilgan mamlakatlar davlat tillari, ularning maqomlari, ijtimoiy vazifasi, standart (davlat) va nostandard (nodavlat) tillar ijtimoiy xizmat doiralari, bilingvism, diglossiya hodisalarini, tillararo munosabat, o'zaro ta'sir, til jamoalarida tillarning qo'llanish holati, sotsium (jamoa a'zolari)ning davlat tillariga munosabati, ularni amalda ishlatalish darajasi va h.k. haqida bilim berishga mo'ljalangan.

## **2-MAVZU: AQSh sotsiolingvistikasi**

AQSh sotsiolingvistikasining vujudga kelishi. AQSh sotsiolingvistikasining tamoman o'zgacha metodologik tamoyillarda deskriptiv tilshunoslik ("tasviriy tilshunoslik", ya'ni til hodisalarining ma'lum bir bosqichdagi holatini tasviriy o'rganishiga qarshi maydonga kelishi. Deskriptiv tilshunoslikka xos bo'lgan mavhum lingvistik tahlillar va tadqiqotning formal metodlari ba'zi AQSh sotsiolingvistlarining til o'rganishga ijtimoiy muomala shakllari sifatida qarashlarini inkor etishi. AQSh sotsiolingvistlarining qarashlari. Arealning sotsiolingvistik tarixi.

## **3-MAVZU: AQSh tillari**

AQShdagi mahalliy tillar va til oilalari. AQShning barcha mahalliy tillarining yo'qolish tahlikasi ostida ekanligi. Yevropa tillari. Fransuz tili. Nemis tili. Ispan tili. Ozchilik til (minority-language)da so'zlashuvchilar.

## **4-MAVZU: Til variantlari va ularga munosabatlar**

Til variantlari, farqlilik, mikrodaraja, makrodaraja, lisoniy jamoa, stratifikatsiya, kod, subkod, muloqot akti, verbal muomala, til differensiatsiyasi, mahalliy tillar, hududiy dialektlar, ijtimoiy dialektlar.

## **5-MAVZU: Germaniya sotsiolingvistikasi**

Germaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi. Sotsiolingvistikasining umumiy nazariyasi. adabiy til, so'zlashuv tili, me'yori, ijtimoiy, individual, mahalliy, kod, gipoteza, nazariya, yo'naliш, farqlilik, o'zaro aloqa, til sotsiologiyasi, nutq akti, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, yoshlar nutqi, kommunikatsiya, vaziyat, rol, mavzu, muomala, muloqot, qatlam, guruh.

## **6-MAVZU: Nemis tilining mayjud bo'lishidagi shakllar va til me'yori muammlesi**

Kuchli dialekt differensiatsiyasi kuzatiladigan nemis tilini, uning so'zlashuv tili (Umgangssprache) va me'yoriy adabiy tili (Hochsprache, Literatursprache, Standartsprache) o'rtaqidagi jiddiy farqlarni o'rganish masalasi, nemis sotsiolingvistlari so'zlashuvchilarining jinsiga ko'ra til differensiatsiyasini o'rganishga e'tibori, GFRda til va siyosat muammolari.

### **7-MAVZU: Ispaniya sotsiolingvistikasi**

Ispaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlar. Ispaniya tillari. Ispan tilining bugungi kundagi ahamiyat. Ispan, kastil, bask, katalon, galisiy tillari, milliy til, muxtor til, rasmiy til, millat, romanistika, dialektologiya, struktura, sistema, belgi, g'oya, tuzum, konstitutsiya, ko'p tilli, rasmiy hujjat.

### **8-MAVZU: Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasi**

Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi. Lisoniy vaziyat. Buyuk Britaniya tillari. Ijtimoiy tabaqlanish, ijtimoiy maqom, korrelatsiya, yoyiq va yig'iq kod, til to'siqlari, oliv sinf, o'rta sinf, quyi sinf, ishchilar sinfi, iyerarxik sinf, intellectual salohiyat, lisoniy salohiyat, struktur-funksional, monarxiya, sotsiolekt.

### **9-MAVZU: Fransiya sotsiolingvistikasi**

Fransiya sotsiolingvistikasining shakllanishi. Fransiya tillari. Ratsionallik, sinfiy qatlam, tilning ijtimoiyligi, sotsiologik yo'naliш, nutqiy faoliyat, til jamoasi, ichki lingvistika, tashqi lingvistika, differensiatsiya, unifikatsiya, lingvistik sotsiologiya, ijtimoiy institut, jargon, bilingvizm, diglossiya, diskurs, alloglott tillar, minoritar tillar, hududiy tillar, Yevropa Xartiyasi, nohududiy tillar, Frankofoniya, Tubon.

### **10-MAVZU: Fransiyadagi til siyosati**

Fransiyadagi til siyosati. Fransuz tilining milliy til sifatida shakllanishi Fransuz tiliga nisbatan til siyosati. Fransyaning tashqi til siyosati va ichki til siyosatining birinchi galda fransuz tilini unifikatsiya qilish, uni yoyish va mashhur qilishga qaratilganligi. Minoritar tillarga nisbatan til siyosati.

### **11-MAVZU: Rossiya sotsiolingvistikasi**

Rossiyadagi sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlar. Til siyosati. Rossiya Federatsiyasining til islohoti. Rossiyada ingлиз tilining o'rni. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta'siri.

Ekstralengvistik omillar, biologik funksiya, empirik tadqiqot, multilingvizm, tipologiya, pijin, majoritar tillar, siyosiy makon, "kasal tillar", markazlashtirish siyosati, stilistik-funksional qatlam, umumxalq jargoni, interjargon, sleng, argo, diskurs, transformator, chegaralangan leksika, umumiste'mol leksika.

### **12-MAVZU: Rossiya Federatsiyasining til islohoti**

Rossiyada – til siyosati xalqlararo munosabatlarning eng muhim muammosi, RSFSRning "RSFSR xalqlarining tillari haqida"gi (1991) Qonuni, Rossiyada pijinning paydo bo'lishi, Rossiyada ingлиз tilining o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta'siri.

### **13-MAVZU: Turkiya sotsiolingvistikasi**

Turkiyadagi til islohotlari. Turkiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar. Turk tili va uning dunyo tillari orasidagi o'rni. Chet tillarining ta'siri.

Til islohoti, Tanzimot davri, alifbo, yozuv, usmonli turkchasi, qurultoy, jamiyat, milliy madaniyat, tilni soddalashtirish, Quyosh tili nazariyasi, Turkiya Majlisi, murojaat shakllari, Muallimlar uyushmasi, imlo qoidalari, o'zlashmalar, til o'zgarishlari, til turlari, tilni soflashtirish, tilni rejalashtirish, jins tafovutlari, dixotomiya.

### **14-MAVZU: Turk tili va uning dunyo tillari orasidagi o'rni**

Turk tili – dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biri, o'g'uz tilining rivojlanishi, chet tillarining ta'siri, ingliz tilining Turkiyada tarqalishi, ingliz tilining Turkiyadagi roli va vazifasi.

### **12-MAVZU: Yaponiya sotsiolingvistikasi**

Yaponiyadagi til siyosati Yapon alifbosi (iyerogliflar va kana). Yapon tilining hurmat shakllari. Yapon tilining gender xususiyatlari. Yaponiyada sotsiolingvistika.

Bungo tili, kogo tili, qurama dialekt, guruh, muloqot shakllari, "o'ziniki", "begona", urg'U, ozchilik tili, milliy g'urur, iyeroglyph, kana, xiragana, katakana, furigana, keygo hurmat shakllari, murojaat shakllari, gonorativ, tengsizlik, samuray.

### **Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar qayd etilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy masalalarni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha OLGAN bilim va ko'nikmalarini amaliy tahlil orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo'llanma, internet ma'lumotlari vositasida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop ettirish orqali saviyani oshirish, test savollari tuzish tavsija etiladi.

## **II. Amaliy mashg'ulot mavzulari**

### **II.1. Xorijiy sotsiolingvistika fanining maqsad va vazifalari**

Sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalişidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rmini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o'rganadi. Sotsiolingvistikani fan sifatida o'rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va masfkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganish lozimligi.

## **II.2. AQSh sotsiolingvistikasining vujudga kelishi**

AQSh sotsiolingvistikasining vujudga kelishi. AQSh sotsiolingvistikasining tamoman o'zgacha metodologik tamoyillarda deskriptiv tilshunoslik ("tasviriy tilshunoslik", ya'ni til hodisalarining ma'lum bir bosqichdagi holatini tasviriy o'rganish)ga qarshi maydonga kelishi.

## **II.3. AQSHdagi tillar, variantlar va ularga bo'lgan munosabatlar**

AQShdagi mahalliy tillar va til oilalari. AQShning barcha mahalliy tillarining yo'qolish tahlikasi ostida ekanligi. Yevropa tillari. Fransuz tili. Nemis tili. Ispan tili. Ozchilik til (minority-language)da so'zlashuvchilar.

## **II.4. AQSH sotsiolingvistlarining qarashlari**

AQSh sotsiolingvistikasining vujudga kelishi, deskriptiv tilshunoslikka xos bo'lgan mavhum lingvistik tahlillar va tadqiqotning formal metodlari, ba'zi AQSh sotsiolingvistlarining til o'rganishga ijtimoiy muomala shakllari sifatida qarashlarini inkor etishi.

## **II.5. Germaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi**

Germaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi. Sotsiolingvistikaning umumiyligi nazariyasi, adabiy til, so'zlashuv tili, me'yor, ijtimoiy, individual, mahalliy, kod, gipoteza, nazariya, yo'nalish, farqlilik, o'zaro aloqa, til sotsiologiyasi, nutq akti, ayollar nutqi, erkaklar nutqi, yoshlar nutqi, kommunikatsiya, vaziyat, rol, mavzu, muomala, muloqot, qatlama, guruhi.

## **II.6. Germaniyada nemis tilining ijtimoiy vazifalari**

Til variantlari – sotsiolingvistikaning an'anaviy tarzda ko'p o'rganiladigan muammolardan biri ekanligi, uning G'arbiy Germaniya tilshunoslari ishlarida salmoqli o'rinni egallagani, nemis tilshunoslari variantlilik deganda, odatda, individual nutqiy aktlarni emas, balki so'zlashuvchilarining muayyan guruhiiga xos bo'lgan, ijtimoiy o'zaro bog'langan til qo'llanishining shakllari va usullarini tushunishi.

## **II.7. Ispaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlar**

Ispaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlar, Ispaniya tillari, ispan tilining bugungi kundagi ahamiyati.

## **II.8. Ispaniya tillari, ularning ijtimoiy vazifalari**

Ispan, kastil, bask, katalon, galisiy tillari, milliy til, muxtor til, rasmiy til, millat, romanistika, dialektologiya, struktura, sistema, belgi, g'oya, tuzum, konstitutsiya, ko'p tillilik.

## **II.9. Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasining vujudga kelishi**

Ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy maqom, korrelatsiya, yoyiq va yig‘iq kod, til to‘siqlari, oliv sinf, o‘rtta sinf, quyi sinf, ishchilar sinfi, iyerarxik sinf, intellectual salohiyat, lisoniy salohiyat, struktur-funksional, monarxiya, sotsiolekt.

## **II.10. Buyuk Britaniyadagi lisoniy vaziyat**

Mamlakatning xalqaro miqyosda tutgan o‘rni hamda jamiyatning ichki strukturasi: uning demokratlashuvi, sinflar tushunchasining parchalanishi kabi o‘zgarishlar tilda ham o‘z aksini topmasdan qolmaganligi. Buyuk Britaniyada iyerarxik sinftizimining qulashi Estuary English (EE) (Londondagi past ijtimoy qatlama vakillarining so‘zlashuv tili) va Received Pronunciation (RP) (Londondagi oliv ijtimoy tabqa vakillarining tili) inglizchasini vujudga keltirganligi.

## **II.11. Fransiya sotsiolingvistikasining shakllanishi.**

### **Fransiyadagi til siyosati**

Ratsionallik, sinfiy qatlama, tilning ijtimoiyligi, sotsiologik yo‘nalish, nutqiy faoliyat, til jamoasi, ichki lingvistika, tashqi lingvistika, differensiatsiya, unifikatsiya, lingvistik sotsiologiya, ijtimoiy institut, jargon, bilingvizm, diglossiya, diskurs, alloglott tillar, minoritar tillar, hududiy tillar, Yevropa Xartiyasi, nohududiy tillar, Frankofoniya, Tubon

Fransiyadagi til siyosati. Fransuz tilining milliy til sifatida shakllanishi Fransuz tiliga nisbatan til siyosati. Fransiyaning tashqi til siyosati va ichki til siyosatining birinchi galda fransuz tilini unifikatsiya qilish, uni yoyish va mashhur qilishga qaratilganligi. Minoritar tillarga nisbatan til siyosati.

## **II.12. Rossiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar**

XX asrning 20-30-yillardagi sotsiolingvistik yo‘nalishdagi dastlabki empirik tadqiqotlar A. M. Selishev, L.P. Yakubinskiy, L. I. Barannikova, U. Uspenskiy, V.M. Jirmunskiy, Y.D. Polivanov, V.V. Vinogradov, B.A. Larin, K. N. Derjavin va G. O. Vinokurlarning nomi bilan bog‘liq ekanligi.

Hozirgi kunga kelib, Rossiyada sotsiolingvistika fan sifatida to‘la shakllangan va o‘z mavqeyini qat’iy belgilab olganligi. Sotsiolingvistika sohasida talaygina keng qamrovli ishlar amalga oshirilganligi.

## **II.13. Rossiyadagi mahalliy millat tillarining hozirgi ahvoli**

Rossiyaning ko‘pmillatli federativ davlat hisoblanishi. 1989-yildagi aholini ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiyada 128 ta millat vakilining yashashi, keyingi ma’lumotlarda esa bu ko‘rsatkichning 176 taga chiqqanligi qayd qilinganganligi. Rossiya Federatsiyasining tarkibida 32 ta milliy subyekt (respublikalar, muxtor viloyatlar va muxtor okruglar) mavjud ekani. Ular Rossiya Federatsiyasi hududining 53%ni egallashi. Rossiyada o‘z milliy tilini yo‘qotgan xalqlar rus tilini ona tili sifatida tan olish tendensiyasi mavjudligi.

## **II.14. Turkiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar**

Turkiyadagi til islohotlari. Jumhuriyatdan oldingi til islohotlari. Jumhuriyat davridagi til islohotlari. Turk tili jamiyatasi (Türk Dil Kurumu). Turkiyadagi sotsiolingvistik tadqiqotlar.

## **II.15. Yapon tilining gender xususiyatlari**

Yapon tilining hurmat shakkiali, yapon tilining gender xususiyatlari, erkek va ayollar nutqining farqlari, yapon ayollarining maqomi va til.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish
  2. Mavjud adabiyotlar bilan tanishish, ma'lumotlar topish va ularni tartiblash.
  3. Berilgan manbalarni tarjima qilish.
  4. Xorijiy sotsiolingvistika fanidan asosiy tushunchalar lug'atini tuzish (misollar bilan).
  5. Xorijiy sotsiolingvistika faniga oid berilgan mavzularda esse yozish
  6. Ilmiy jurnal, anjumanlarga tezis tayyorlash va nashr ettirish.
3. **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

“Xorijiy sotsiolingvistika” fanini o’rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikdagi amaliy masalalarni yechishda ko’nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kafedra professor-o’qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Mustaqil ta’lim professor-o’qituvchining magistrantlarga avvalda berib qo‘yiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi. Bunda magistrantlar qo’shimcha adabiyotlarni o’rganib, internet saytlaridan foydalangan holda referatlar, kurs ishlari va ilmiy ma’ruzalar tayyorlaydilar, amaliy, seminar mashg’ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko’rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Magistrantga mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ta’limning quyidagi shakkidan foydalanish tavsiya etiladi:

  - amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik;
  - darslik va o’quv qo’llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o’rganish;
  - tarqatma materiallar bo'yicha ma’ruzalar qismini o’zlashtirish;
  - maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;
  - magistrantning o’quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan fan bo’limlari va mavzularini chuqur o’rganishi;
  - faol va muammoli o’qitish uslubidan foydalaniadigan o’quv mashg’ulotlarida faol qatnashish;

	- masofaviy ta'limgi tashkil etishda qatnashish.
4.	<p style="text-align: center;"><b>Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)</b></p> <p>Xorijiy sotsiolingvistika fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Shuningdek, atroficha bilim olish maqsadida, talabalarga mustaqil ish va mustaqil ta'lim beriladi. Bu fanning yuquqlarini tilshunoslik, sotsiologiya va boshqa sohalariga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.</p> <p>Bunda talaba-magistrant xorijiy sotsiolingvistika fanining shakllanishi tarixi, uning shakllanishida dunyo olimlarining roli, jumladan, rivojlangan mamlakatlarda sotsiolingvistikarning vujudga kelish shart-sharoitlarini o'rganadi. Binobarin, bugungi kunda jahon tilshunosligida turli mamlakatlar davlat tillari, ularning maqomlari, ijtimoiy vazifasi, standart (davlat) va nostonart(nodavlat) tillar ijtimoiy xizmat doiralarini, bilingvizm, diglossiya hodisalari, tillararo munosabatlari, o'zarot ta'sir, til jamoalarida tillarning qo'llanish holati, sotsium (jamoa a'zolari)ning davlat tillariga munosabati, ularni amalda ishlatalish darajasini o'rganish millatlararo munosabatlarda til va undan foydalanishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.</p> <p>Fanni o'rganish natijasida talaba XX asr oxiri-XX asr boshida jahon xaritasida yirik davlatlarning vujudga kelishi, dunyoning qudratli imperiyalar tomonidan taqsimlanishi, kichik, zaif yurtlarning mustamlakaga aylanishi, ularning yirik davlatlar tarkibiga zo'rma-zo'raki kiritilishi, paydo bo'lgan imperiyalarda turfa millat, elat va xalqlarning hayot kechirish tarzi, tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-madaniy muammolar bilan yonma-yon til masalalarining ham yuzaga chiqqani to'g'risida to'laqonli tasavvurga ega bo'ladi hamda bu ma'lumotlardan o'quv-tadqiqotchilik faoliyatida o'rinali foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.</p>
5.	<p style="text-align: center;"><b>Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</b></p> <p>ma'ruzalar; kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi. amaliy mashg'ulotlar; interfaol keys-stadilar; guruhlarda ishlash; klaster; taqdimotlarni qilish; individual loyihibar; jamoa va kichik guruh bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibar.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
7.	

## Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar Asosiy adabiyot

1. Dadaboyev H., Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma – Toshkent: Universitet, 2014.

### Qo'shimcha adabiyot

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi farmoni (Xalq so'zi. 2017 yil, 8 feval).

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olyi ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori (Xalq so'zi 2017 yil, 21 aprel).

7. Алпатов В.М. Язык и общество. – М.: Муравьев, 2003.

8. Крючкова Т.Б., Наумов Б.П. Зарубежная социолингвистика. Германия. Испания. – М.: Наука, 1991.

11. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. Теория, проблемы, методы. – М., 1977.

### Internet saytlari

1. <http://sociolingvistica.narod.ru/materialy.htm>.

2. <http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/Europe/france-3politik-minorites.htm>.

3. <http://www.sonsayfa.com/autor-article-detail.php?id=2873>.

4. <http://ru.wikipedia.org>.

5. <http://russian.news.cn/economic/2009-11/03/c/1378126.htm>.

## 8. Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Mazkur fanning o'quv dasturi “O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2024-yil 7 - 06 dagi 20-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur fanning o'quv dasturi “O'zbek filologiyasi fakultetining 2024-yil 12 - 06 dagi 10-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 26 - 06 dagi 11-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

9.	<b>Fan (modul) uchun mas'ul:</b> Sh.Maxmaraimova, o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
10.	<b>Taqrizchilar:</b> A.Eshmo'minov – O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori;  <b>S.A.Karimov</b> – Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori